

**YUQORI SINF O'QUVCHILARINI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUV**

Usmonova Sohiba Toyir qizi

Mardonova Feruza Boboqulovna

Mavlonova Yulduz Ilhomovna

Navoiy davlat pedagogika instituti Texnologik ta'lim kafedrası o'qituvchisi

O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri bilimga asoslangan iqtisodiyot ta'lim va kasbiy tayyorgarlikning yangi modellarini ishlab chiqish hisoblanadi. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy va jismoniy harakat jarayonlaridan iborat bo'lib, buning natijasida ular mehnat predmetlari, vosita va jarayonlari haqidagi bilimlarni hamda ma'lum sohadagi ishlab chiqarish mehnati va kasbga yo'naltirish amaliy ko'nikma va malakalarini egallaydilar, ongli ravishda kasb tanlashga hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo'lida mehnat faoliyatiga tezda qo'shilishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifatleri hamda tafakkurlarini rivojlantiradilar. Yangi iqtisodiy munosabatlar kasb-hunarga yo'naltirishning yangicha munosabati sharoitida mehnat ko'nikmalari va malakalarini maqsadli shakllantirishdan iborat bo'lib, ongli va har tomonlama rivojlangan fuqoroni tarbiyalashning tarkibiy qismi hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** innovatsion yondashuv, kasb, hunar, maktab, o'qituvchi, o'quvchi, professiogramma, psixogramma

Kasbga yo'naltirishdan asosiy maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda kasb tanlashga tayyorlashdan iborat bo'lib, bu jarayon shaxsning bo'lg'usi kasbiy faoliyat subyekti sifatida shakllanishini nazarda tutadi hamda uning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga moslashib borishiga ko'maklashadi.

Innovatsion faoliyat shunday vositalar yordamida kechadigan holatki, bunda pedagogik yangilanish g'oyasi paydo bo'ladi. U sotsial holatga undan ta'limdagi yangilikni tug'ilishi, paydo bo'lishiga olib keladi. Shu munosabat bilan o'quvchilarga ilm-fan asoslarining mustahkam bilimlarini singdirish, ularda yuksak onglilikni tarbiyalash, umuminsoniy qadriyatni shakllantirish, yosh avlodni turmushga va mehnatga, ijtimoiy zarur kasblarni ongli ravishda tanlashga tayyorlash mehnat ta'lim va tarbiyasining vazifalaridir.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini olib borishda "Kasb nima?" degan savol tug'iladi. Kasb to'g'risida bir qancha ta'riflar berilgan.

- Kasb bu – insonga ma'lum bir talablar qo'yuvchi faoliyat turidir.
- Kasb – insonni jamiyat tomonidan tan olinishidir.
- Kasb – tiriklik va tirikchilik manbayidir.

Shu boisdan yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish muammosi umumiy o'rta ta'lim maktabi ishida katta o'rin tutadi. "Mening orzuim", "Kim bo'lsam ekan", "Men sevgan kasb", "Kasbning yomoni yo'q", "Kasbim faxrim" degan mavzular har bir maktab bitiruvchi yigit va qiz oldida turgan asosiy muammolardan biridir. O'quvchilarning o'qishga bo'lgan chanqoqligini qondiruvchi birinchi ziyo – chashma bu maktabdir. Ta'lim jarayonida o'quvchilarda kasblar tiplarini mustaqil holda bilish (Inson-tabiati, inson-texnika, inson-badiiy timsol, inson-belgili tizim), tanlayotgan kasbning talablarini o'z shaxsiy sifatleri bilan qiyoslay olish, o'z moyilligi, qobiliyati, salomatligi tanlanayotgan kasbga muvofiqligini to'g'ri baholash ko'nikmalari shakllanishi lozim. O'qituvchining kasb-hunarga

yo'naltirishdagi asosiy vazifasi – har bir bitiruvchi o'quvchini, uning kasbga va bilimga qiziqishlarini, moyillik, ehtiyojlari, atrof-muhitni, oilaviy ahvolini yaxshi va har tomonlama o'rganishdan iborat bo'lishi kerak. Kasbga yo'naltirish uzoq muddatli yalpi dasturlar asosida va milliy xalq hunarmandchilik kasblarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Ayrim turdagi kasblarga yo'naltirish bilan cheklanib qolmasdan, balki aniq iqtisodiy hududning turli sohalaridagi kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda yoshlarni sanoat, qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlaridagi kasblar va milliy hunarmandchilik kasblariga umumta'lim maktablarining texnologiya darslarida yo'naltirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xususan, 9-sinf texnologiya dasrligida aynan 4-bob “Kasb tanlashga yo'llash texnologiyasi” deb nomlanib, o'quvchilar kasb professiogrammasi ya'ni insonning psixologik xususiyatlariga tayangan holda kasbiy tavsiflar, muhim hisoblangan kasbiy sifatlar, kasb psixogrammasi to'g'risida asosiy tushuncha va ta'riflar keltirilgan. O'quvchilar o'z navbatida ushbu mavzular bo'yicha psixodiagnostik usullar yordamida kasbiy faoliyat asoslari, kasbiy tanlov uchun tuzilgan psixogrammalarning mazmuni, unda aks ettirilgan mutaxassis faoliyatiga berilgan tavsiyalar, “Kasb tanlash” varaqasini to'ldirish to'g'risidagi tushunchalarga ega bo'ladilar. Amaliy mashg'ulot sifatida “Professiogramma” jadvalini bevosita o'zlari tanlagan kasb faoliyati bo'yicha to'ldiradilar. Natijada o'quvchilarning shaxsga ta'sir etadigan psixologik harakatlari, ko'nikmalari, professional fikrlash, shu jumladan, ijodiy fikrlash, kasbiy tajribani boyitib borish, kasbiy o'sishda rejalarini amalga oshirish va kasbiy qobiliyatlari rivojlanadi. Shunday ekan o'quvchilarni o'z vaqtida xohishlariga binoan kasb tanlashlari ta'minlansa, ularda hayot jamiyatimizning ertangi kuniga ishinch tuyg'usi shakllanadi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Ochilov Shokir Baxtiyorovich Improving the methodology for the development of environmental competencies of students in the interdisciplinary teaching of physics. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal Year : 2021, Volume : 11, Issue : 10 First page : ( 1269) Last page : ( 1273) Online ISSN : 2249-7137. Article DOI : 10.5958/2249-7137.2021.02237.0
2. Ochilov Sh.B. Texnologiya fanini fanlalar o'qitishda o'quvchi ekologik kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalari Science and innovation international scientific journal volume 1 issue 7 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337
3. Khamroeva Sevara Nasriddinovna THE THEORETICAL SIGNIFICANCE OF DEVELOPING LOGICAL THINKING SKILLS AMONG FUTURE PHYSICS TEACHERS uzbek scholar journal volume- 24, january, 2024 www.uzbekscholar.com 193-196
4. Laylo Turdieva, Khamroeva Sevara Nasriddinovna METHODOLOGY FOR TEACHING THE TOPIC “DEVICE USED IN CRAFTS” uzbek scholar journal volume- 24, january, 2024 www.uzbekscholar.com 225-227
5. Usmonova Sohiba Toyir qizi JCROSS (CROSSWORD) – BLOCK USAGE METHODOLOGY uzbek scholar journal volume- 24, january, 2024 www.uzbekscholar.com 236-241
6. O'. K. Sunnatova, G. I. Saifullayeva Research in students in physics and astronomy classes and the development of competencies of the XXI century. Ways of organizing project activities of students in physics education Uzbek Scholar Journal Volume-24, January, 2024 www.uzbekscholar.com 101-108

7. Sayfullayeva Gulhayo Ikhtiyor kizi, Bozorova Aziza Murodilla kizi The practical importance of an integrative approach to teaching astronomy from a small school age uzbek scholar journal volume- 24, january, 2024 www.uzbekscholar.com 130-133
8. Saifullayeva Gulhayo volunteer daughter Interactive Applications From Astronomy And Ways To Manage Them Uzbek scholar journal volume- 24, january, 2024 www.uzbekscholar.com 123-129
9. Kamolov Ikhtiyor Ramazonovich FEATURES OF USING MATHEMATICAL KNOWLEDGE AND LAWS OF PHYSICS IN TEACHING ASTRONOMY Uzbek scholar journal volume- 24, january, 2024 www.uzbekscholar.com 152-157
10. I.R. Kamolov, G.I. Sayfullaeva -Formation of teacher's competence in the performance of laboratory and experimental works Journal of critical reviews. ISSN-2394-5125, 2020
11. Ochilov Shokir Baxtiyorovich, Nematov Bahron, Sharipov Abdumalik Axmadovich, Mavlonova Yulduz Ilhomovna, Usmonova Sohiba Toyir qizi PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL DIAGNOSTIC BASES OF PREPARING STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY IN TECHNOLOGY EDUCATION SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 2 FEBRUARY 2023 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ
12. Nematov Bahron, Sharipov Abdumalik Ahmadovich, Ochilov Shakir Bakhtiyorovich, Mavlonova Yulduz Ilhomovna POSSIBILITIES OF USING INTERACTIVE TOOLS IN EDUCATION SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 6 JUNE 2023 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ
12. D.I. Kamalova, S.N. Abdisalomova. "Zamonaviy innovatsion ta'lim". Journal of universal science research. Volume 1. Issue 1. 17 january, 2023. pp. 187-189.
13. Nematov Baxron, Bisenova Bakit Tobakabulovna, Shamsiyev Makhkam Sultanovich, Mavlonova Yulduz Ilkhomovna FREQUENT VIBRATIONS OF SINGLE CYLINDER SYSTEMS// Harvard Educational and Scientific Review, 2022
14. A.A. Axmedov, I.P. Kamolov, F.B. Mardonova Модернизированная модель проведения лабораторных работ по физике // Инновационные тенденции развития системы образования// Сборник статей Международной научно-практической конференции. Чебоксары 2013
15. A. Qutbedinov, Y. Mavlonova USE OF INNOVATIVE METHODS IN TEACHING TECHNOLOGICAL EDUCATION // Science and innovation, 2023
16. M. S. Shamsiyev, Sh. Ochilov G. Karimova O'QUVCHILARGA TOMCHILATIB SUG'ORISH TEXNOLOGIYOYASINI O'QITISH METODIKASI// Uzbek Scholar Journal Volume- 25, February, 2024 www.uzbekscholar.com
17. Bisenova Bakit Tobakabulovna, Mavlonova Yulduz Ilhomovna, Xudoyberdiyev Nufar Zafarjon o'g'li // UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI O'QUVCHILARIGA KONSTRUKSIYALASH ELEMENTLARINI O'RGATISHNING SAMARADORLIGI
18. B.N. Khushvaqtov Didactic factors affecting improvement academica: an international multidisciplinary research journal 2021 1823-1826.